

## AFOQOVANING “YUSUF” SHE’RI

Bazarova Xolida Ergashevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi ona tili va  
adabiyot fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

e-mail: [bozorova1970@outlook.com](mailto:bozorova1970@outlook.com)

Inson hayoti gohi shodlik, farahbaxsh kunlar, goh tashvish, g‘am-u mashaqqatlari bilan mukammal. Har ikki holatni ham odamzod o‘z sabri-qanoati bilan kechiradi. Qalbini dard va alam kemirganida kishi o‘zini ojiz, benajot sezadi. Zimiston qa’riga cho‘madi, atrofning bor go‘zalligi ham unga nursiz, hissiz, sovuq va beo‘xshov ko‘rinadi. Shunday og‘ir damda inson taskin yo bir najot izlaydi. Najot esa, albatta, sabrdir. Bu haqda muqaddas manba – Qur’oni Karimda ”Har qanday g‘am-tashvishga botgan mahzun kishi Yusuf surasini eshitishi bilan orom - osoyish topur”<sup>1</sup> deb ta’kidlangan.

*Har kech zimistonga boqurman dardnok:*

*Tunmidir kunduzning yuksak kamoli?*

*Oyga termulaman.*

*Osmon-qora choh.<sup>2</sup>*

Taniqli shoira, ajoyib iste’dod sohibasi Nodira Afoqova qalamiga mansub ”Yusuf” she’ri ana shunday dardli , g‘amgin va ezg‘in tuyg‘ular jo bo‘lgan misralar bilan boshlanadi. Zero, ”zimiston-dardnok-tun” istilohlarining o‘ziyoq lirik qahramon qalbidagi turmush alamlarini tanosub ipida namoyon etib turibdi. ”Osmon-qora choh” jumlesi esa kishini batamom zulmatning qoraligiga ko‘mib, najot choralarini izlashga chog‘laydi. Bir qarashda oksimoron<sup>3</sup> ko‘rinishidagi mazkur jumla, kishi tuyg‘usini

<sup>1</sup> Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima. ”Cho‘lpon” nashriyoti, T.: 259-bet

<sup>2</sup> Afoqova Nodira. yolg‘izning Yori. She’rlar. ”Muharrir” nashriyoti, T.: 2022-yil.85-bet

<sup>3</sup> oksimoron-**Oksimoron** ( grekcha *oxymoron* – o`tkir ma’noli bema’nilik so`zidan ) – +o`z ma’nosidan ko`chirilib, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalab kelgan so`zlar, komponentlari mohiyat e’tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan

majhul hislarga o‘raydi: osmon-choh? ”Choh” –quduq, ammo osmon nega choh bo‘lsin?! Yuzaki qaraganda modern adabiyoti xususiyatini eslatuvchi mazkur jumla keyingi satrda o‘z mohiyatini oydinlashtiradi:

*Yodimni yoritar Yusuf<sup>1</sup> jamoli.*

*Ey hazrati Yusuf, ey husni tal’at![2.85-bet]*

Mumtoz she’riyatda Yusuf timsolini tasvirlash bilan ma’shuqa go‘zalligiga nisbat berish o‘rinlari ko‘p uchraydi. Rivoyatga ko‘ra, Yusuf jamoli mavjud go‘zalliklarning 99%iga teng kelar , ayollarda bu nisbatning 1%ini tashkil etarkan.

Ammo shoira Afoqova mazkur she’rda fikrni Yusuf payg‘ambar go‘zalligiga emas, balki yuqorida qayd etganimiz bu zot haqida bitilgan o‘sha mashhur sura mantig‘i asosiga qaratadi. She’r kompozitsiyasi ham o‘ziga xos. Sujet lirik qahramonning ruhiyati tasviri bilan boshlanadi. Unda o‘zi yashayotgan olamda yorug‘liksiz, nursiz dardi-dunyosi dardchil qalb kechinmalari tasvirlangan:

*Har kech zimistonga boqurman dardnok:*

*Tunmidir kunduzning yuksak kamoli*

*Oyga termulaman.*

*Osmon-qora choh. ?[2. 85-bet]*

Kunduz –yorug‘lik, ro‘shnolik. Ammo bu ro‘shnolikning tun, ya’ni zulmat bilan kamol topishi, iltijolar makoni osmon ham qora choh tarzida tasvirlanishida lirik qahramon qalbidagi dardning ham naqadar chuqurligidan dalolatdir. Mazkur misralar she’r kompozitsiyasida muammo- tugun vazifasini o‘tab, unda tazod badiiy tasvir vositasining o‘ziga xos tashbehi sifatida ifodalanishi she’r ta’sirchanligini oshirgan.

Badiiy adabiyotda voqealar bayonida nasriy asarlar muvofiq keladi. Negaki, she’r his-tuyg‘ular bayonida qulay. Buyuk Navoiy so‘z san’ati ta’rifida to‘xtalib:

Nazm anga gulshanda ochilmog‘lig‘i

Nasr qaro yerga sochilmog‘lig‘i<sup>1</sup> deya qayd etgan, adabiyotshunoslikda nazm o‘ynoqi soyga, nasr esa og‘ir va sokin oquvchi chuqur daryoga qiyoslanadi<sup>2</sup>.

ko`chma ma`nodagi birikma. Masalan: shirin azob, zulmat ziyosi

<sup>1</sup> “**Yusuf** (arabcha: يُوسُف) — islom dini payg‘ambari, Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘li

Shoira mahorati shundaki, u go‘zal va ta’sirchan satrlarda voqelik hamda tuyg‘ularni uyg‘unlashtirib, ijodning noyob durdonasi- go‘zal sana’at asari yaratishga erishgan. Qayd etish kerakki, she’rning har bir misrasi yoki jumlesi ba’zida to‘liq bir qissa bayonini ifodalay oladi.

*Iskanjaga olib haqsiz bir hukm,  
Sizning siymongizda qilolmay toqat,  
Ilk bora o‘limni sog‘indi qavmim.  
Buzuq xayollarin oqlamak uchun  
Kishanband etsalar, gunohsiz garchi –  
Jim tursa odamlar-bu hollar, ayting,  
O‘ziga qarshimi, Xudoga qarshi?  
Beayb desalar-u, chohga otsalar... [2.85-bet]*

”Kishanband etsalar, gunohsiz garchi” hamda ” Beayb desalar-u, chohga otsalar... ” misralari xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan voqeani yodga soladi. Ya’qub payg‘ambarning 12 nafar o‘g‘li bor. Ammo u farzandlari ichida Yusufga mehr qo‘ygan. Ya’qub Yusufsiz o‘zini go‘yoki ”suvsiz baliqdek” sezadi. O‘g‘illar ana shu mehrni qizg‘anadilar! Tuyg‘ular qarama-qarshiligi fojeani keltirib chiqaradi. She’rda ”Osmon-qora choh”, ”Kishanband etsalar, gunohsiz garchi” hamda ” Beayb desalar-u, chohga otsalar... ” misralari Ya’qub payg‘ambarning Yusuf ismli o‘g‘liga ota mehridan qizg‘anib, uning 10 nafar akasi tomonidan quduqqa tashlangani voqeasiga ishora edi. ”Iskanjaga olib haqsiz bir hukm” misrasi esa ana shu adolatsizlik ifodasi o‘laroq bitilgan. Negaki, bechora uka jondan aziz qarindoshlari tomonidan haqsiz jazolanayotgan edi. Ana shu kabi haqsizlikni insoniyat har dam , har nafasda nafaqat begonalardan, hatto o‘z yaqinlaridan ko‘rmaydi deysiz. Lirik qahramon dard-alamlari ko‘nglida hayot qiyinchiliklaridan, tor-u tanglikdan og‘irlilik his qilgan o‘quvchi tuyg‘ulariga hamohang uyg‘unlashib ketadi. Shoira ozurda qalb nolalarini bitar ekan, real hayotda yuz berayotgan nohaqliklardan, kibr va ro‘yo hukmron bu

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. G`G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy iyi. T.: 2020-yil, 61-bet

<sup>2</sup> Izzat Sulton. Adabiyotshunoslik nazariyasi. ”O‘qituvchi”nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2005-yil

dunyo iztiroblaridan dard chekadi. Sabrning go‘zal timsoli-Yusuf alayhissalomga murojaat qiladi:

*Ey hazrati Yusuf, ey husni tal’at!*

*Iskanjaga olib haqsiz bir hukm,*

*Sizning siymongizda, qilolmay toqat,*

Ilk bora o‘limni sog‘indi qavmim,- [2. 85-bet] tarzida davom etar ekan, o‘z go‘zalligi bilan afsona Yusuf boshiga aynan shu sifat ofat bo‘lib yog‘iladi. ”Iskanjaga olib haqsiz bir hukm”, avvalo, qarindosh inilar tomonidan bechora uka ustidan uning hijroniga erishish maqsad qilingan hukm edi. Ammo unutdilarki, har bir qilingan amal o‘z ajriga ega:”Ilk bora o‘limni sog‘indi qavmim”. Iyhom<sup>1</sup> vazifasini o‘taguvchi misraning avvalida Yusufga tilangan o‘lim nazarda tutilsa, ikkinchi mantiq o‘zlar(akalar)ning ham qilayotgan amallari evaziga olishlari naqd bo‘lgan Allah ”mukofoti”dir.

Zohirida ko‘ngil kechinmalari tasviriga baxsh etilgan misralar o‘z botinida Yusuf taqdiri dostonidan hikoya qiladi:

*Buzuq xayollarin oqlamak uchun*

*Kishanband etsalar, gunohsiz garchi-*

*Jim tursa odamlar-bu hollar, ayting,*

*O‘ziga qarshimi, Xudoga qarshi?*

Yusuf rasullulohu alayhivassalam haqida juda ko‘plab asarlar yaratilgan. Qissa, doston, rivoyat, afsonalar el og‘zida doston bo‘lib ketgan. Biz esa she’r mag‘zini yoritishda Nosuruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning ”Qissasi Rabg‘uziy”<sup>2</sup> asariga tayanishni ma’qul ko‘rdik. Zero, she’r ohangi, sujeti, zamiriga singdirilgan mantiq asar g‘oyasiga hamohang. Yusufning otaga naqadar suyumli ekanligi baxtsiz akalar dilini shunchalar o‘rtaydiki, ular bu beozor ukadan tezroq qutilishni orzu qiladilar. Orzularining sarhadlarida akalik ”mehr”i ham sezilib turadi. Negaki, Yusuf o‘limini taqdir hukmiga qoldiradilar, ya’ni uni o‘ldirmasdan quduqqa tashlab ketadilar. Bu amal biroz bo‘lsa-da, qalblariga birodarkushlik tamg‘asini bosmas, yanaki uka uchun

<sup>1</sup> iyhom-so‘z yoki jumlani bir marta qo`llash bilan ikki xil ma’no ifodalash badiiy tasvir vositasi.

<sup>2</sup> Rabg‘uziy, Nosiruddin Burhonuddin, Qissasi Rabg‘uziy. T.: „Yozuvchi“ 1991-yil, 99-bet

”yaxshilik” qilish, ya’ni uni tirik qoldirishdek inoyat edi! Ilyonli inson tasavvuriga sig‘dirish qiyin bo‘lgan mazkur vaziyat qalb torlarini uzib yuboradi. Yurakda po‘rtalangan tug‘yon o‘z qirg‘og‘idan toshib, bo‘g‘izda dardli hayqiriq bo‘lib isyon ko‘taradi:

*Beayb desalar-u, chohga otsalar,  
Izzati nafs uchun, go ‘yo ermakka,  
Kiborlar, kiborlar! Har nega magar  
O‘zlarini haqdar sezsalar yakka;*

Bu vaqtida Bechora Yusuf bir chohdan qutulib, ikkinchisiga tutilgandi. Quduqdan o‘z tashnaliklarini qondirmoqchi bo‘lgan karvon xizmatchilari suv idishlariga osilib chiqqan yigitchani o‘zlari bilan olib ketadilar. Qul bozorida arzon-garovga (egasi chiqib qolishidan qo‘rqib) sotib yuboradilar. Yusufning cheksiz go‘zalligi ta’rifi mamlakatga yoyilib, u Misr hukmdorlaridan bo‘lgan Patifar saroyiga borib qoladi. Ammo bu yerda ham uni Zulayho ismi bilan yuritiluvchi taqdir kutib turgandi. Zulayhoning hadsiz muhabbatи avvaliga Yusuf boshiga tuhmat bo‘lib yog‘ildi va u Patifarning insof-u adolati bilan zindonga tashlandi:

O! Oqsuyaklarning amriga yurmay  
Zindonlar tubini afzal bilganlar...

She’r – ko‘ngil mulki. Unda shoир qalbining tub-tubida tug‘yon urayotgan tuyg‘ular sarhadidan oshib tilga chiqadi va o‘z zamini , ya’ni makoni- qog‘ozga to‘kiladi. Shoira ham mazkur she’rda qalamga olgan dardli hikoyani qalbida kechgan isyon bilan iste’foda etadi. Birgina Yusuf boshiga tushgan fojea insoniyat fojeasi bilan uyg‘unlashib ketadi:

*Jim tursa odamzod-o ‘yilib bag‘ri  
Haqsizlik va xorlik alamlaridan,  
chidolmay, chidolmay! Yulduzlar bari*

*Yulinib tushmasmi falaklaridan?* – tarzidagi faryod o‘quvchi qalbining allaqayerlariga borib uriladi, aks –sado beradi. She’rning kulminatsiya nuqtasi bo‘lgan mazkur misralar yanada o‘zining yuksak cho‘qqisiga qarab bo‘y cho‘zadi. Yana choh, yana zindon voqeasi yodga tushadi:

*Chohlar to'nikarilar tubin ko'rsatib,  
Zindonlar qo'zg'olon etar ming karra.*

Shu o'rinda shoira falsafiy olamining naqadar chuqur , keng ekanligiga iqror bo'lsan kishi. Bag'rida yotgan insonning azoblariga na choh va na zindon chiday olmayotgan holati bizning azaliy islomiy qarashlarimiz- "Yer ham bag'rida abadiy makon topgan bandaning azoblariga chiday olmaydi " kabi mantig'iga borib taqalganday. Ammo Nodira iztiroblari bu bilan tugamaydi, shoira go'yo qo'lida bayroq bilan dunyo haqsizliklariga, shafqatsizlarga qarshi isyon ko'taradi. Dardli faryodlari bilan na'ra tortadi:

*Ruhimni o'raydi achchiq faryodlar:*

*Nechun elchilarni sotar odamzod?-deya ketma-ket o'tkir savollar qo'yadi:*

*To'xtamas karvonday zulm-u azoblar?*

*Adashmoq nimadir? Muhrdir? Nahot?..*

Bir-biridan o'tkir, yuraklarga tig' kabi sanchilguvchi bu savollarga javob bormikin? Sabrning buyuk timsoli, nafaqat tashqi go'zalligi, balki qalbi, amali, e'tiqodida g'ozal sabrning xojasi – Yusuf berarmikin javobni?! Bir qarashda murojaat yoinki undalma tarzida barcha dardli tug'yon to'la 14 misradan iborat fikrlar to'g'ridan-to'gri Yusufga qaratiladi. Shu 14 undalmaning o'ziyoq Yusuf qissasini to'la bayon etadi: "Ey kabiri toqat", "Ey hasad tiyg'idan kuylaklari qon", "Ey chohlar zulmati tanlagan qurban", "Ey makr sayyodin saydi, tutquni", "Ey bo'hton bozorin avji savdosi", "Ey pora kuylagi-nomus libosi", "Ey quduqning Oyi, zindon Oftobi!". Sifatlovchi bilan qo'llangan undalmalar afsonaviy Yusuf sifatlarini birma-bir sifatlash bilan birga yuqorida qo'yilgan savollarga javob vazifasini bajarishiga ham xizmat qildirilgan. Anchayin yuqori pardalarda o'qiluvchi misralar "Nechun elchilarni sotar odamzod?" degan inkor etib bo'lmash savol qarshisida bir dam bo'lsada o'ylashga, xulosa qilishga undaydi:

Ey quduqning Oyi, zindon Oftobi!...

Yoki :

Ey "haqman" deganga Haqning javobi!

Yusuf o‘z taqdiri taqozosi bilan quduqda saqlanib, akalarining qahridan omonda bo‘ldi, Misr zindonida saqlanib esa Zulayho bo‘htoni va uning eri Patifar qahridan omonda bo‘ldi. Olloh o‘ziga kerak bandasini xoh quduqda, xoh zindonda bo‘lsin (Yunus payg‘ambarni baliqning qornida) asray oladi va bu haqda Yaratganning va’dasi bor! ”Ey “haqman” deganga Haqning javobi!” misrada ana shu va’da esga olingan.

Mumtoz she’riyat sarchashmalaridan oziqlangan zamonaviy o‘zbek she’riyati o‘z jozibasini go‘zal izdoshlik an’analariga ko‘ra ham boyitib, sayqallantirib bormoqda. Nafaqat janrda, vaznda yoki so‘z va tushunchalar, obrazlar qo‘llanishida, balki g‘oylar ifodasida ham bu go‘zallikni kuzatish mumkin. Taniqli shoira Nodira Afoqova qalamiga mansub yuqorida tahlilini keltirganimiz ”Yusuf” she’ri ham boshga har qanday sinovli, og‘ir kunlar tushganida qalblarga qanoat, sabr etishga undovchi she’rlar sirasiga kiradi. She’rning har bir so‘zi, har bir ifodasi bilan behalovat ko‘ngillar osoyish topadi; bezovtalik chekinib, qalb muqaddas ismlarni takrorlaydi, imonini poklaydi. Yusuf alahissalom taqdiri bilan bog‘liq voqealarni hayotga doir falasafiy qarashlar bilan teran tasvirlab bera olishi shoira qalbining ham ham ilmiy, ham irfoniy, ham diniy ham dunyoviy ilmlar bilan nurafshon ekanidan dalolat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima. ”Cho‘lpon” nashriyoti, T.: 259-bet
2. Afoqova Nodira. yolg‘izning Yori. She’rlar. ”Muharrir” nashriyoti, T.: 2022-yil.85-bet
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.  
T.: 2020-yil, 61-bet
4. Izzat Sulton. Adabiyotshunoslik nazariyasi. ”O‘qituvchi”nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2005-yil
5. Rabg‘uziy, Nosiruddin Burhonuddin, Qissasi Rabg‘uziy. T.: „Yozuvchi“ 1991-yil, 99-bet